



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHAMOL O‘YINI” QISSASIDA BADIY NUTQ YARATISH MAHORATI

Suyunova Dilbar Rustam qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Shoyim Bo‘tayeving “*Shamol o‘yini*” qissasida badiiy nutq yaratish mahorati tadqiq etiladi. Asardagi muallif nutqi, qahramonlar tili, dialog va monologlarning badiiy-estetik vazifalari, xalqona til birliklarining qo‘llanilishi, ramziy tasvirlar hamda psixologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Yozuvchining individual uslubi va badiiy tafakkuri qissa misolida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida adibning milliy ruh, xalqona tafakkur va inson ruhiyatini badiiy ifodalashdagi yuksak mahorati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy nutq, muallif nutqi, dialog, monolog, psixologizm, xalqona til, ramziy obraz, individual uslub, Shoyim Bo‘taye, “*Shamol o‘yini*”.

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ В ПОВЕСТИ ШОЙИМА БЎТАЕВА «ИГРА ВЕТРА»

Сууюнова Дилбар Рустам кизи

Каттакурганский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуется мастерство создания художественной речи в повести Шойима Бўтаева «Игра ветра». Анализируются авторская речь, язык персонажей, художественно-эстетические функции диалогов и монологов, использование народно-разговорных языковых средств, символических образов и особенности психологической речи. На примере повести раскрываются индивидуальный стиль писателя и своеобразие его художественного мышления. Результаты исследования позволяют выявить мастерство автора в передаче национального духа, народного мировосприятия и внутреннего мира человека средствами художественного слова.

Ключевые слова: художественная речь, авторская речь, диалог, монолог, психологизм, народный язык, символический образ, индивидуальный стиль, Шойим Бўтаев, «Игра ветра».

THE ART OF CREATING ARTISTIC SPEECH IN SHOYIM BOTAYEV’S NOVELLA THE GAME OF THE WIND

Suyunova Dilbar Rustam qizi

Kattakurgan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article examines the artistic mastery of speech creation in Shoyim Botayev’s novella The Game of the Wind. It analyzes the author’s narrative voice, the language of the characters, the artistic and aesthetic functions of dialogues and monologues, the use of folk language elements, symbolic imagery, and the distinctive features of psychological discourse. The study reveals the writer’s individual style and artistic thinking through the example of the novella. The findings demonstrate Botayev’s skill in conveying national spirit, folk mentality, and the inner world of human beings through artistic language.

Keywords: artistic speech, authorial narration, dialogue, monologue, psychologism, folk language, symbolic image, individual style, Shoyim Botayev, The Game of the Wind.

O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, milliy tafakkur va jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni badiiy talqin etish masalasi har doim muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davri nasrida insonning ichki olami, uning ma’naviy iztiroblari, hayot va taqdir haqidagi mushohadalari badiiy tasvir markaziga aylandi. Bu jarayonda o‘zbek nasri yangi badiiy-estetik izlanishlar bilan boyib, milliy ruh va zamonaviy tafakkurning uyg‘unlashuviga erishdi. Shunday adiblardan biri Shoyim Bo‘taye bo‘lib, u o‘zining betakror uslubi, falsafiy mushohadaga boy asarlari hamda xalq hayotini chuqur tasvirlash mahorati bilan o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi.

Shoyim Bo‘taye ijodi inson va jamiyat munosabatlarini, xalqning ma’naviy dunyosini, milliy karakter va qadriyatlarini yuksak badiiylik asosida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Adib asarlarida voqealar tasviri oddiy hayotiy lavhalardan iboratdek ko‘rinsa-da, ularning zamirida chuqur falsafiy ma’no,

murakkab ruhiy kechinmalar va ijtimoiy muammolar mujassam bo'ladi. Yozuvchi badiiy tafakkurining muhim jihatlardan biri shundaki, u qahramonlarning ruhiy olamini ochishda, muayyan davr va muhitning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda badiiy nutq imkoniyatlaridan nihoyatda unumli foydalanadi.

“**Shamol o'yini**” qissasi yozuvchining eng e'tiborli asarlaridan biri bo'lib, unda xalq hayoti, inson taqdiri, e'tiqod va xurofot, haqiqat va yolg'on, ezgulik va jaholat kabi muhim masalalar badiiy talqin etilgan. Asarda Tepa va Oybuloq qishloqlari misolida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, ma'naviy olami va ruhiy holati tasvirlanadi. Qissa voqealari davomida Oybuloq qishlog'ida sodir bo'layotgan g'ayritabiiy hodisalar, odamlarning bu voqealarga bo'lgan munosabati hamda ular atrofida yuzaga kelgan mish-mishlar orqali inson tafakkuridagi murakkab jarayonlar ochib beriladi. Muallif voqelikni bevosita baholamaydi, balki qahramonlar nutqi, muallif bayoni va turli badiiy vositalar orqali kitobxonni mushohada yuritishga undaydi.

Badiiy asarning estetik qimmati va ta'sirchanligi ko'p jihatdan undagi nutqning tashkil etilish darajasiga bog'liq. Chunki badiiy nutq nafaqat voqealarni bayon qilish vositasi, balki obraz yaratish, qahramon xarakterini ochish, muallif g'oyasini ifodalash hamda kitobxon bilan estetik muloqotni amalga oshirishning asosiy qurolidir. Adabiyotshunoslikda badiiy nutq asarning ichki tuzilishini shakllantiruvchi va uning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim komponent sifatida baholanadi. Muallifning individual uslubi, dunyoqarashi va estetik ideallari aynan nutq orqali namoyon bo'ladi. [Karimov N. XXI asr o'zbek adabiyoti tarixi, 80-b.]

“**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutqning turli ko'rinishlari – muallif nutqi, dialoglar, ichki monologlar, xalqona iboralar, metaforalar, kinoya va ramziy tasvirlar o'zaro uyg'un holda qo'llangan. Ayniqsa, qahramonlarning jonli va tabiiy so'zlashuv uslubi, xalq tiliga xos obrazli ifodalar, hikmatli so'zlar hamda milliy ruhni aks ettiruvchi leksik birliklar asarning badiiy qiymatini oshirgan. Muallif nutqidagi poetiklik, falsafiy mushohada va psixologik tahlil elementlari esa qissaning estetik ta'sir kuchini yanada kuchaytiradi.

Qissada shamol obrazi markaziy ramz sifatida namoyon bo'lib, u inson hayotining o'zgaruvchanligi, taqdirning sirli jihatlari va zamon oqimining timsoli sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, asarda uchraydigan har bir dialog, har bir tasvir va har bir badiiy detal muallifning ma'lum bir g'oyaviy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Natijada badiiy nutq asarning nafaqat shakliy, balki mazmuniy asosini ham tashkil etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Shoyim Bo'tayevning “**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutq yaratish mahoratini ilmiy jihatdan tahlil qilish, muallif nutqining uslubiy xususiyatlarini, qahramonlar tilining individualligini, dialog va monologlarning badiiy vazifalarini hamda xalqona til vositalarining estetik imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Shuningdek, asarda qo'llangan tasviriy vositalar, ramziy obrazlar va psixologik nutqning badiiy funksiyasi ham tadqiqot obyektlaridan biri sifatida o'rganiladi. Bu esa yozuvchi mahoratini chuqurroq anglash va uning o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy nutq masalasi adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday badiiy asarning g'oyaviy-badiiy qiymati, avvalo, unda qo'llanilgan nutq vositalarining mazmun va shakl uyg'unligiga bog'liq. Adabiyot nazariyasiga oid ilmiy manbalarda badiiy nutq yozuvchi tafakkuri, estetik qarashlari va individual uslubining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Xususan, H. Umurov, N. Karimov, B. Sarimsoqov, U. Normatov kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, obraz yaratishdagi til vositalarining o'rni va yozuvchi uslubining shakllanish omillari keng yoritilgan.

Shoyim Bo'tayev ijodi ham o'zbek adabiyotshunosligida turli aspektlarda o'rganilgan. Tadqiqotlarda yozuvchining qissalarida inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, milliy xarakter, qishloq hayoti va xalqona tafakkurning aks etishi alohida ta'kidlangan. Biroq “**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutqning barcha komponentlarini kompleks tarzda o'rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Qissaning dastlabki sahifalaridanoq muallif xalqona tasvir usuliga murojaat qiladi. Tepa va Oybuloq qishloqlari tasviri orqali nafaqat voqea makoni, balki shu hududda yashovchi odamlarning ma'naviy dunyosi ham ochib beriladi. Muallif qahramonlarni tavsiflashda xalq tiliga xos iboralar, sodda sintaktik konstruksiyalar va obrazli ifodalardan foydalanadi. Natijada badiiy nutq voqealar tasvirining oddiy vositasi emas, balki qahramonlar xarakterini yaratish vositasiga aylanadi.

Asardagi badiiy nutqning yana bir muhim jihati uning ko'p qatlamli ekanligidir. Muallif nutqi, qahramonlar dialoglari, ichki monologlar va xalq og'zaki ijodi unsurlari bir-biri bilan uyg'unlashib, asarning yaxlit poetik tizimini shakllantiradi. Shu jihatdan “**Shamol o'yini**” qissasi o'zbek nasrida badiiy

nutq imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan asarlar qatoriga kiradi.

Shoyim Bo‘tayeov ijodida badiiy nutq oddiy voqeabandlik vositasi sifatida emas, balki inson va jamiyat munosabatlarini ochib beruvchi estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi asarlarida har bir obraz o‘z nutqiga ega bo‘lib, uning dunyoqarashi, ruhiyati va hayotga munosabati aynan til orqali namoyon bo‘ladi.

“**Shamol o‘yini**” qissasida muallif inson ongida mavjud bo‘lgan qarama-qarshi tushunchalarni nutq orqali ifodalaydi. Bir tomondan, Oybuloq aholisi orasida tarqalgan xurofotlar, jin va sirli kuchlar haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, voqealarga aql va tafakkur bilan yondashishga intilish ham ko‘zga tashlanadi. Bu qarama-qarshiliklar qahramonlar nutqida o‘zining badiiy ifodasini topadi.

Qissada xalq tafakkuri va xalq nutqining badiiy talqini ham alohida ahamiyatga ega. Kampirlarning fol ochishi, voqealarni turlicha sharhlashi, qishloq oqsoqollarining mulohazalari xalq ruhiyatini yoritishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Yozuvchi ularning nutqini sun‘iy bezashga urinmaydi, aksincha, tabiiy va hayotiy shaklda tasvirlaydi. Shu sababli qahramonlar nutqi kitobxonda ishonch uyg‘otadi.

“**Shamol o‘yini**” qissasining muhim yutuqlaridan biri muallif nutqining o‘ziga xosligi va obrazlilikidir. Muallif voqealarni oddiy bayon etmaydi, balki har bir hodisaga estetik va falsafiy ma‘no yuklaydi.

Masalan, qissaning boshida Tapa qishlog‘i aholisi tasvirlanar ekan, ularning “uzoq umr ko‘rishi”, “hotamona fe‘l-atvori”, “odamligi”ni tasvirlash orqali muallif nafaqat tashqi belgilarni, balki xalq karakterini ham ochib beradi.

Muallif nutqida kinoya va yumor elementlari ham ko‘p uchraydi. Oybuloqdagi voqealarni kampirlarning “jinlar ishi” sifatida talqin qilishi muallif tomonidan bevosita inkor etilmaydi. Biroq tasvirning o‘zi orqali kitobxon voqealarning asl mohiyati haqida mustaqil xulosa chiqarishga undaladi.

Yozuvchining individual uslubini belgilovchi yana bir xususiyat — tasvirning ixchamligi va mazmundorligidir. Bir qarashda oddiy tuyulgan jumlar zahirida katta falsafiy ma‘no yashiringan bo‘ladi. Shu jihatdan Shoyim Bo‘tayeov nasri o‘quvchini faol mushohada yuritishga majbur qiladi.

Qissada dialoglar voqealarni rivojlantirish, xarakter yaratish va muallif g‘oyasini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir personajning nutqi uning yoshi, tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqega mos tarzda shakllantirilgan.

Oybuloqdagi voqealar haqida kampirlarning o‘zaro suhbatlari xalq orasidagi xurofot va afsonaviy tasavvurlarni aks ettiradi. Ularning har bir fikri mantiqiy dalillarga emas, balki eshitilgan mish-mishlarga tayanadi. Bu esa xalq ongidagi ayrim stereotiplarni ochib berishga xizmat qiladi.

Mirza bobo va Berkinboy o‘rtasidagi dialoglar esa qissaning falsafiy qatlamini shakllantiradi. Ayniqsa, Berkinboyning:

– “Men yurt izlab yuribman” [Sh. Bo‘tayeov, “*Shamol o‘yini*”, 55-b.]

degan gap qahramonning butun ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu jumla orqali muallif insonning o‘zligini izlash, makon va taqdir bilan bog‘liq murakkab masalalarni ko‘taradi.

Monologlar esa qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ichki nutq yordamida qahramonlarning qo‘rquv, shubha, umid va izzatlarini ko‘rsatadi.

Shoyim Bo‘tayeov qissalarining badiiy jozibasini ta‘minlovchi muhim omillardan biri xalqona til imkoniyatlaridan mohirona foydalanishidir. “Shamol o‘yini” qissasida ham yozuvchi xalqning jonli so‘zlashuv nutqini, maqol va matallarni, shevaga xos birliklarni hamda obrazli iboralarni asar badiiy to‘qimasiga tabiiy singdirgan.

Qissaning dastlabki boblaridanoq xalq tiliga mansub “ichi qoralar”, “boshi ko‘kka yetmoq”, “og‘zi qulog‘ida”, “es-hushini chiqarib yubormoq”, “ko‘ngliga suv urmoq” kabi ko‘plab frazeologik birliklar uchraydi. Ushbu iboralar qahramonlar nutqining tabiiyligini ta‘minlash bilan birga, ularning ruhiy holatini qisqa va ta‘sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Yozuvchi xalq maqollaridan ham samarali foydalanadi. Jumladan, “Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi” kabi hikmatli iboralar qahramonlar tafakkurini yoritish bilan birga, xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasini ham ifodalaydi.

Asarda xalqona til unsurlari faqat bezak sifatida emas, balki xarakter yaratish vositasi sifatida qo‘llangan. Kampirlar, oqsoqollar, dehqonlar va boshqa qahramonlarning nutqi bir-biridan farqlanadi. Har bir personajning gapirish uslubi uning yoshi, ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashiga mos ravishda shakllantirilgan. Shu jihatdan qahramonlar nutqidagi individuallik asarning muhim badiiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, yozuvchi xalq og‘zaki ijodiga xos mubolag‘a, kinoya va kulgili ifodalardan ham unumli foydalanadi. Natijada qissa tilida xalqona samimiyat va hayotiylik kuchayadi.

“Shamol o‘yini” qissasida psixologik tasvir muhim o‘rin egallaydi. Yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini yoritishda ichki monolog, ruhiy tahlil va psixologik detallar vositasidan foydalanadi.

Mirza boboning tungi kuzatuvlari, oy va osmon haqidagi mulohazalari, notanish odamni ko‘rib yuragining “shig‘ etib ketishi” kabi holatlar inson ruhiyatining tabiiy tasvirini yaratadi. Muallif voqealarni tashqi harakatlar orqali emas, balki qahramon ongida kechayotgan jarayonlar orqali ochib beradi.

Psixologik tasvir, ayniqsa, Berkinboy obrazi bilan bog‘liq sahnalarda chuqurlashadi. U o‘z yurtini tark etishga majbur bo‘lgan, taqdir sinovlariga duch kelgan inson sifatida tasvirlanadi. Berkinboyning nutqida iztirob, yolg‘izlik va umidsizlik bilan bir qatorda yashashga bo‘lgan ishonch ham sezilib turadi.

Muallif qahramon ruhiyatini ochishda ortiqcha tavsiflarga murojaat qilmaydi. Qahramonning birgina qarashi, sukuti yoki qisqa jumlasini uning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa yozuvchining psixologik tasvir yaratish mahoratidan dalolat beradi.

Shuningdek, qissada qo‘rquv, shubha va xurofot ta‘sirida yashayotgan Oybuloq aholisi ruhiyati ham muvaffaqiyatli tasvirlangan. Odamlarning jin haqidagi mish-mishlarga ishonishi, har qanday voqeani g‘ayritabiiy kuchlar bilan bog‘lashi jamiyat ongidagi psixologik holatlarni ochib beradi.

Shoyim Bo‘tayev badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ham o‘ziga xos uslubga ega. Asarda metafora, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a va ramziy obrazlar keng qo‘llanilgan.

Qissaning markaziy ramzi — shamol obrazidir. Shamol asarda faqat tabiat hodisasi sifatida emas, balki inson taqdiri, hayotning o‘tkinchiligi va zamonning o‘zgaruvchanligi ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shamol harakat, beqarorlik va yangilanish timsoli sifatida qissa g‘oyaviy mazmunini boyitadi.

Oybuloq qishlog‘idagi sirlil hodisalar ham ramziy ma‘noga ega. Yer ostidan chiqayotgan yonuvchi suyuqlik, quduqlardagi olov va odamlar orasida tarqalgan qo‘rquv hissi jaholat va xurofotning timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Muallif bu hodisalarni tasvirlar ekan, ularning ijtimoiy va ma‘naviy mohiyatiga e‘tibor qaratadi.

Berkinboy obrazi ham qissadagi muhim ramziy qahramonlardan biridir. U o‘z yurtidan ayrilgan, yangi makon izlayotgan inson timsolidir. Shu ma‘noda Berkinboy nafaqat aniq personaj, balki hayotda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan insoniyat vakilining umumlashma obrazidir.

Yozuvchi tabiat tasvirlarini ham ruhiy holatlar bilan uyg‘unlashtiradi. Oy, tog‘, buloq, shamol va tun manzaralari qahramonlar ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan holda tasvirlanadi. Natijada tabiat asarda oddiy fon emas, balki faol badiiy unsur sifatida qatnashadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Shamol o‘yini” qissasida badiiy nutq asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Muallif nutqining obrazlilik, dialoglarning tabiiyligi, ichki monologlarning psixologik chuqurligi va xalqona til birliklarining mahorat bilan qo‘llanilishi asarning estetik ta‘sir kuchini oshirgan. Qissada voqealar bayoni oddiy tasvir doirasida qolmaydi, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari, hayotga munosabati va ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari orqali chuqurlashadi. Shu jihatdan badiiy nutq asarda nafaqat tasvir vositasi, balki xarakter yaratish, muallif g‘oyasini ifodalash va o‘quvchi hissiyotiga ta‘sir ko‘rsatishning muhim usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda xalq hayoti va xalq tafakkuri badiiy nutq vositasida yorqin ifodalangan. Yozuvchi milliy ruhni aks ettirishda xalq tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Xalqona iboralar, obrazli ifodalar, jonli so‘zlashuv uslubiga xos birliklar qissa tiliga tabiiylik va hayotiylik bag‘ishlaydi. Natijada asar qahramonlari sun‘iy yoki kitobiy tilda emas, balki o‘z ijtimoiy muhiti, dunyoqarashi va xarakteriga mos tarzda so‘zlaydi. Bu esa qahramonlar nutqining individualligini ta‘minlab, ularning ruhiy holatini yanada ishonarli ochishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, qahramonlar nutqining individualligi asarda muhim badiiy vazifa bajaradi. Har bir obraz o‘ziga xos so‘zlash tarzi, fikrlash usuli va munosabat bildirish shakli orqali ajralib turadi. Dialoglar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi, xarakteridagi qat‘iyat, ikkilanish, iztirob yoki umid kabi holatlar ochiladi. Muallif dialoglardan faqat voqeani rivojlantirish uchun emas, balki obrazlarning psixologik qiyofasini yaratish maqsadida ham foydalanadi. Shu sababli qissadagi dialoglar tabiiy, hayotiy va mazmunan serqatlam ko‘rinishga ega.

Ichki monologlar esa qissaning psixologik teranligini ta‘minlaydigan muhim vositalardan biridir. Qahramonlarning ichki nutqi orqali ularning tashqi voqelikka munosabati, o‘z-o‘zini anglash jarayoni, shubha va iztiroblari ochib beriladi. Bunday nutq shakli asarning dramatik kuchini oshiradi, o‘quvchini obraz ruhiyatiga yaqinlashtiradi. Ichki monologlar yordamida yozuvchi inson qalbidagi murakkab jarayonlarni, aytilmagan fikrlar va yashirin kechinmalarni badiiy ifodalashga erishadi.

Qissadagi ramziy obrazlar va metaforik tasvirlar badiiy nutqning semantik imkoniyatlarini kengaytirgan. Xususan, “shamol” obrazi oddiy tabiat hodisasi sifatida emas, balki hayotdagi beqarorlik, inson taqdiri, ichki iztirob, o‘zgarish va harakat ramzi sifatida talqin qilinadi. Shamolning harakati qahramonlar ruhiyatidagi bezovtalik va ziddiyatlar bilan uyg‘unlashib, asarning umumiy falsafiy ohangini kuchaytiradi. Shu jihatdan ramziy obrazlar qissa mazmuniga ko‘p qatlamlilik olib kiradi.

Metaforik tasvirlar ham asarning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Muallif inson ruhiyatini, tabiat manzaralarini va ijtimoiy muhitni tasvirlashda ko‘chma ma’noli birliklardan unumli foydalanadi. Bunday tasvirlar matnga obrazlilik, hissiylik va falsafiy chuqurlik bag‘ishlaydi. Natijada qissa nafaqat voqealar ketma-ketligi asosida qurilgan nasriy asar, balki inson va hayot, taqdir va irodaviy kurash, jamiyat va shaxs munosabatlarini yorituvchi badiiy-falsafiy matn sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Shamol o‘yini” qissasida badiiy nutqning bir necha asosiy funksiyasi ko‘zga tashlanadi. Birinchidan, u obraz yaratish vositasi sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, qahramonlarning ruhiy holatini ochadi. Uchinchidan, xalqona tafakkur va milliy ruhni ifodalaydi. To‘rtinchidan, asarning ramziy-falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. Beshinchidan, o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini kuchaytiradi.

Umuman olganda, “Shamol o‘yini” qissasida badiiy nutq yozuvchi mahoratining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif xalqona til unsurlari, ramziy obrazlar, psixologik tasvirlar, dialog va ichki monologlar orqali asarning mazmuniy qatlamlarini boyitgan. Natijada qissa o‘zbek nasrida inson ruhiyati, milliy tafakkur va falsafiy mushohadani ifodalovchi badiiy matn sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Shoyim Bo‘tayeovning “Shamol o‘yini” qissasi o‘zbek nasrida badiiy nutq mahoratining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Asarda muallif nutqi, dialoglar, ichki monologlar, xalqona iboralar, tasviriyy vositalar va ramziy obrazlar o‘zaro uyg‘unlashib, mukammal badiiy tizimni vujudga keltirgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi qahramon xarakterini yaratishda individual nutq xususiyatlaridan samarali foydalangan. Dialoglar orqali xalq tafakkuri va milliy xarakter ochib berilgan bo‘lsa, ichki monologlar vositasida inson ruhiyatining murakkab qatlamlari yoritilgan. Xalqona til birliklari esa asarning milliy koloritini kuchaytirib, badiiy matnga tabiiylik va samimiyat bag‘ishlagan. Shuningdek, shamol, buloq, olov, yo‘l va yurt kabi ramziy obrazlar asarning falsafiy mazmunini chuqurlashtirgan. Muallif nutqidagi poetiklik, kinoya va psixologizm qissaning estetik qiymatini yanada oshirgan. Demak, “Shamol o‘yini” qissasi Shoyim Bo‘tayeovning yuksak badiiy mahoratini namoyon etuvchi asar bo‘lib, unda badiiy nutq inson ruhiyati, xalq tafakkuri va hayot falsafasini ifodalashning asosiy vositasi sifatida xizmat qilgan. Shu jihatdan mazkur qissa o‘zbek nasrining badiiy-estetik taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bo‘tayeov Sh. Shamol o‘yini: qissa va hikoyalar. – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – 160 b.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 544 b.
3. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 384 b.
4. Yo‘ldoshev B. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2018. – 256 b.
5. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 320 b.
6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004. – 224 b.
7. Qo‘shjonov M. Badiiyatdan o‘n ikki saboq. – Toshkent: Sharq, 2007. – 216 b.
8. Rahimjonov N. Istiqloq davri o‘zbek nasri: taraqqiyot tamoyillari va badiiy tafakkur. – Toshkent: Akademya, 2015. – 280 b.
9. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 272 b.
10. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademya, 2018. – 480 b.
11. Mamajonov S. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013. – 496 b.
12. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 248 b.

SHOYIM BO‘TAYEVNING “SHAMOL O‘YINI” QISSASIDA BADIY NUTQ YARATISH MAHORATI

Suyunova Dilbar Rustam qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Shoyim Bo‘tayevning “*Shamol o‘yini*” qissasida badiiy nutq yaratish mahorati tadqiq etiladi. Asardagi muallif nutqi, qahramonlar tili, dialog va monologlarning badiiy-estetik vazifalari, xalqona til birliklarining qo‘llanilishi, ramziy tasvirlar hamda psixologik nutqning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Yozuvchining individual uslubi va badiiy tafakkuri qissa misolida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida adibning milliy ruh, xalqona tafakkur va inson ruhiyatini badiiy ifodalashdagi yuksak mahorati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy nutq, muallif nutqi, dialog, monolog, psixologizm, xalqona til, ramziy obraz, individual uslub, Shoyim Bo‘tayev, “*Shamol o‘yini*”.

МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ В ПОВЕСТИ ШОЙИМА БЎТАЕВА «ИГРА ВЕТРА»

Сууюнова Дилбар Рустам кизи

Каттакурганский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье исследуется мастерство создания художественной речи в повести Шойима Бўтаева «Игра ветра». Анализируются авторская речь, язык персонажей, художественно-эстетические функции диалогов и монологов, использование народно-разговорных языковых средств, символических образов и особенности психологической речи. На примере повести раскрываются индивидуальный стиль писателя и своеобразие его художественного мышления. Результаты исследования позволяют выявить мастерство автора в передаче национального духа, народного мировосприятия и внутреннего мира человека средствами художественного слова.

Ключевые слова: художественная речь, авторская речь, диалог, монолог, психологизм, народный язык, символический образ, индивидуальный стиль, Шойим Бўтаев, «Игра ветра».

THE ART OF CREATING ARTISTIC SPEECH IN SHOYIM BOTAYEV’S NOVELLA THE GAME OF THE WIND

Suyunova Dilbar Rustam qizi

Kattakurgan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article examines the artistic mastery of speech creation in Shoyim Botayev’s novella *The Game of the Wind*. It analyzes the author’s narrative voice, the language of the characters, the artistic and aesthetic functions of dialogues and monologues, the use of folk language elements, symbolic imagery, and the distinctive features of psychological discourse. The study reveals the writer’s individual style and artistic thinking through the example of the novella. The findings demonstrate Botayev’s skill in conveying national spirit, folk mentality, and the inner world of human beings through artistic language.

Keywords: artistic speech, authorial narration, dialogue, monologue, psychologism, folk language, symbolic image, individual style, Shoyim Botayev, *The Game of the Wind*.

O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, milliy tafakkur va jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni badiiy talqin etish masalasi har doim muhim mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmi va mustaqillik davri nasrida insonning ichki olami, uning ma’naviy iztiroblari, hayot va taqdir haqidagi mushohadalari badiiy tasvir markaziga aylandi. Bu jarayonda o‘zbek nasri yangi badiiy-estetik izlanishlar bilan boyib, milliy ruh va zamonaviy tafakkurning uyg‘unlashuviga erishdi. Shunday adiblardan biri Shoyim Bo‘tayev bo‘lib, u o‘zining betakror uslubi, falsafiy mushohadaga boy asarlari hamda xalq hayotini chuqur tasvirlash mahorati bilan o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallaydi.

Shoyim Bo‘tayev ijodi inson va jamiyat munosabatlarini, xalqning ma’naviy dunyosini, milliy karakter va qadriyatlarini yuksak badiiylik asosida aks ettirishi bilan ajralib turadi. Adib asarlarida voqealar tasviri oddiy hayotiy lavhalardan iboratdek ko‘rinsa-da, ularning zamirida chuqur falsafiy ma’no,

murakkab ruhiy kechinmalar va ijtimoiy muammolar mujassam bo'ladi. Yozuvchi badiiy tafakkurining muhim jihatlardan biri shundaki, u qahramonlarning ruhiy olamini ochishda, muayyan davr va muhitning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda badiiy nutq imkoniyatlaridan nihoyatda unumli foydalanadi.

“**Shamol o'yini**” qissasi yozuvchining eng e'tiborli asarlaridan biri bo'lib, unda xalq hayoti, inson taqdiri, e'tiqod va xurofot, haqiqat va yolg'on, ezgulik va jaholat kabi muhim masalalar badiiy talqin etilgan. Asarda Tepa va Oybuloq qishloqlari misolida xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi, ma'naviy olami va ruhiy holati tasvirlanadi. Qissa voqealari davomida Oybuloq qishlog'ida sodir bo'layotgan g'ayritabiiy hodisalar, odamlarning bu voqealarga bo'lgan munosabati hamda ular atrofida yuzaga kelgan mish-mishlar orqali inson tafakkuridagi murakkab jarayonlar ochib beriladi. Muallif voqelikni bevosita baholamaydi, balki qahramonlar nutqi, muallif bayoni va turli badiiy vositalar orqali kitobxonni mushohada yuritishga undaydi.

Badiiy asarning estetik qiymati va ta'sirchanligi ko'p jihatdan undagi nutqning tashkil etilish darajasiga bog'liq. Chunki badiiy nutq nafaqat voqealarni bayon qilish vositasi, balki obraz yaratish, qahramon xarakterini ochish, muallif g'oyasini ifodalash hamda kitobxon bilan estetik muloqotni amalga oshirishning asosiy qurolidir. Adabiyotshunoslikda badiiy nutq asarning ichki tuzilishini shakllantiruvchi va uning badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim komponent sifatida baholanadi. Muallifning individual uslubi, dunyoqarashi va estetik ideallari aynan nutq orqali namoyon bo'ladi. [Karimov N. XXI asr o'zbek adabiyoti tarixi, 80-b.]

“**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutqning turli ko'rinishlari – muallif nutqi, dialoglar, ichki monologlar, xalqona iboralar, metaforalar, kinoya va ramziy tasvirlar o'zaro uyg'un holda qo'llangan. Ayniqsa, qahramonlarning jonli va tabiiy so'zlashuv uslubi, xalq tiliga xos obrazli ifodalar, hikmatli so'zlar hamda milliy ruhni aks ettiruvchi leksik birliklar asarning badiiy qiymatini oshirgan. Muallif nutqidagi poetiklik, falsafiy mushohada va psixologik tahlil elementlari esa qissaning estetik ta'sir kuchini yanada kuchaytiradi.

Qissada shamol obrazi markaziy ramz sifatida namoyon bo'lib, u inson hayotining o'zgaruvchanligi, taqdirning sirli jihatlari va zamon oqimining timsoli sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, asarda uchraydigan har bir dialog, har bir tasvir va har bir badiiy detal muallifning ma'lum bir g'oyaviy-estetik maqsadiga xizmat qiladi. Natijada badiiy nutq asarning nafaqat shakliy, balki mazmuniy asosini ham tashkil etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Shoyim Bo'tayevning “**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutq yaratish mahoratini ilmiy jihatdan tahlil qilish, muallif nutqining uslubiy xususiyatlarini, qahramonlar tilining individualligini, dialog va monologlarning badiiy vazifalarini hamda xalqona til vositalarining estetik imkoniyatlarini ochib berishdan iboratdir. Shuningdek, asarda qo'llangan tasviriy vositalar, ramziy obrazlar va psixologik nutqning badiiy funksiyasi ham tadqiqot obyektlaridan biri sifatida o'rganiladi. Bu esa yozuvchi mahoratini chuqurroq anglash va uning o'zbek nasri taraqqiyotidagi o'rnini belgilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Badiiy nutq masalasi adabiyotshunoslikning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Chunki har qanday badiiy asarning g'oyaviy-badiiy qiymati, avvalo, unda qo'llanilgan nutq vositalarining mazmun va shakl uyg'unligiga bog'liq. Adabiyot nazariyasiga oid ilmiy manbalarda badiiy nutq yozuvchi tafakkuri, estetik qarashlari va individual uslubining ifodasi sifatida talqin qilinadi. Xususan, H. Umurov, N. Karimov, B. Sarimsoqov, U. Normatov kabi olimlarning tadqiqotlarida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, obraz yaratishdagi til vositalarining o'rni va yozuvchi uslubining shakllanish omillari keng yoritilgan.

Shoyim Bo'tayev ijodi ham o'zbek adabiyotshunosligida turli aspektlarda o'rganilgan. Tadqiqotlarda yozuvchining qissalarida inson ruhiyatining murakkab qatlamlari, milliy xarakter, qishloq hayoti va xalqona tafakkurning aks etishi alohida ta'kidlangan. Biroq “**Shamol o'yini**” qissasida badiiy nutqning barcha komponentlarini kompleks tarzda o'rganish masalasi hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Qissaning dastlabki sahifalaridanoq muallif xalqona tasvir usuliga murojaat qiladi. Tepa va Oybuloq qishloqlari tasviri orqali nafaqat voqea makoni, balki shu hududda yashovchi odamlarning ma'naviy dunyosi ham ochib beriladi. Muallif qahramonlarni tavsiflashda xalq tiliga xos iboralar, sodda sintaktik konstruksiyalar va obrazli ifodalardan foydalanadi. Natijada badiiy nutq voqealar tasvirining oddiy vositasi emas, balki qahramonlar xarakterini yaratish vositasiga aylanadi.

Asardagi badiiy nutqning yana bir muhim jihati uning ko'p qatlamli ekanligidir. Muallif nutqi, qahramonlar dialoglari, ichki monologlar va xalq og'zaki ijodi unsurlari bir-biri bilan uyg'unlashib, asarning yaxlit poetik tizimini shakllantiradi. Shu jihatdan “**Shamol o'yini**” qissasi o'zbek nasrida badiiy

nutq imkoniyatlaridan samarali foydalanilgan asarlar qatoriga kiradi.

Shoyim Bo‘tayeov ijodida badiiy nutq oddiy voqeabandlik vositasi sifatida emas, balki inson va jamiyat munosabatlarini ochib beruvchi estetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi asarlarida har bir obraz o‘z nutqiga ega bo‘lib, uning dunyoqarashi, ruhiyati va hayotga munosabati aynan til orqali namoyon bo‘ladi.

“**Shamol o‘yini**” qissasida muallif inson ongida mavjud bo‘lgan qarama-qarshi tushunchalarni nutq orqali ifodalaydi. Bir tomondan, Oybuloq aholisi orasida tarqalgan xurofotlar, jin va sirlil kuchlar haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, voqealarga aql va tafakkur bilan yondashishga intilish ham ko‘zga tashlanadi. Bu qarama-qarshiliklar qahramonlar nutqida o‘zining badiiy ifodasini topadi.

Qissada xalq tafakkuri va xalq nutqining badiiy talqini ham alohida ahamiyatga ega. Kampirlarning fol ochishi, voqealarni turlicha sharhlashi, qishloq oqsoqollarining mulohazalari xalq ruhiyatini yoritishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Yozuvchi ularning nutqini sun‘iy bezashga urinmaydi, aksincha, tabiiy va hayotiy shaklda tasvirlaydi. Shu sababli qahramonlar nutqi kitobxonda ishonch uyg‘otadi.

“**Shamol o‘yini**” qissasining muhim yutuqlaridan biri muallif nutqining o‘ziga xosligi va obrazlilikidir. Muallif voqealarni oddiy bayon etmaydi, balki har bir hodisaga estetik va falsafiy ma‘no yuklaydi.

Masalan, qissaning boshida Tapa qishlog‘i aholisi tasvirlanar ekan, ularning “uzoq umr ko‘rishi”, “hotamona fe‘l-atvori”, “odamligi”ni tasvirlash orqali muallif nafaqat tashqi belgilarni, balki xalq xarakterini ham ochib beradi.

Muallif nutqida kinoya va yumor elementlari ham ko‘p uchraydi. Oybuloqdagi voqealarni kampirlarning “jinlar ishi” sifatida talqin qilishi muallif tomonidan bevosita inkor etilmaydi. Biroq tasvirning o‘zi orqali kitobxon voqealarning asl mohiyati haqida mustaqil xulosa chiqarishga undaladi.

Yozuvchining individual uslubini belgilovchi yana bir xususiyat — tasvirning ixchamligi va mazmundorligidir. Bir qarashda oddiy tuyulgan jumlar zahirida katta falsafiy ma‘no yashiringan bo‘ladi. Shu jihatdan Shoyim Bo‘tayeov nasri o‘quvchini faol mushohada yuritishga majbur qiladi.

Qissada dialoglar voqealarni rivojlantirish, xarakter yaratish va muallif g‘oyasini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir personajning nutqi uning yoshi, tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeiga mos tarzda shakllantirilgan.

Oybuloqdagi voqealar haqida kampirlarning o‘zaro suhbatlari xalq orasidagi xurofot va afsonaviy tasavvurlarni aks ettiradi. Ularning har bir fikri mantiqiy dalillarga emas, balki eshitilgan mish-mishlarga tayanadi. Bu esa xalq ongidagi ayrim stereotiplarni ochib berishga xizmat qiladi.

Mirza bobo va Berkinboy o‘rtasidagi dialoglar esa qissaning falsafiy qatlamini shakllantiradi. Ayniqsa, Berkinboyning:

– “Men yurt izlab yuribman” [Sh. Bo‘tayeov, “*Shamol o‘yini*”, 55-b.]

degan gap qahramonning butun ruhiy holatini ifodalaydi. Ushbu jumla orqali muallif insonning o‘zligini izlash, makon va taqdir bilan bog‘liq murakkab masalalarni ko‘taradi.

Monologlar esa qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ichki nutq yordamida qahramonlarning qo‘rquv, shubha, umid va izzatlarini ko‘rsatadi.

Shoyim Bo‘tayeov qissalarining badiiy jozibasini ta‘minlovchi muhim omillardan biri xalqona til imkoniyatlaridan mohirona foydalanishidir. “Shamol o‘yini” qissasida ham yozuvchi xalqning jonli so‘zlashuv nutqini, maqol va matallarni, shevaga xos birliklarni hamda obrazli iboralarni asar badiiy to‘qimasiga tabiiy singdirgan.

Qissaning dastlabki boblaridanoq xalq tiliga mansub “ichi qoralar”, “boshi ko‘kka yetmoq”, “og‘zi qulog‘ida”, “es-hushini chiqarib yubormoq”, “ko‘ngliga suv urmoq” kabi ko‘plab frazeologik birliklar uchraydi. Ushbu iboralar qahramonlar nutqining tabiiyligini ta‘minlash bilan birga, ularning ruhiy holatini qisqa va ta‘sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Yozuvchi xalq maqollaridan ham samarali foydalanadi. Jumladan, “Odam so‘zlashib topishadi, yilqi kishnashib topishadi” kabi hikmatli iboralar qahramonlar tafakkurini yoritish bilan birga, xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasini ham ifodalaydi.

Asarda xalqona til unsurlari faqat bezak sifatida emas, balki xarakter yaratish vositasi sifatida qo‘llangan. Kampirlar, oqsoqollar, dehqonlar va boshqa qahramonlarning nutqi bir-biridan farqlanadi. Har bir personajning gapirish uslubi uning yoshi, ijtimoiy tajribasi va dunyoqarashiga mos ravishda shakllantirilgan. Shu jihatdan qahramonlar nutqidagi individuallik asarning muhim badiiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, yozuvchi xalq og‘zaki ijodiga xos mubolag‘a, kinoya va kulgili ifodalardan ham unumli foydalanadi. Natijada qissa tilida xalqona samimiyat va hayotiylik kuchayadi.

“Shamol o‘yini” qissasida psixologik tasvir muhim o‘rin egallaydi. Yozuvchi qahramonlarning ichki dunyosini yoritishda ichki monolog, ruhiy tahlil va psixologik detallar vositasidan foydalanadi.

Mirza boboning tungi kuzatuvlari, oy va osmon haqidagi mulohazalari, notanish odamni ko‘rib yuragining “shig‘ etib ketishi” kabi holatlar inson ruhiyatining tabiiy tasvirini yaratadi. Muallif voqealarni tashqi harakatlar orqali emas, balki qahramon ongida kechayotgan jarayonlar orqali ochib beradi.

Psixologik tasvir, ayniqsa, Berkinboy obrazi bilan bog‘liq sahnalarda chuqurlashadi. U o‘z yurtini tark etishga majbur bo‘lgan, taqdir sinovlariga duch kelgan inson sifatida tasvirlanadi. Berkinboyning nutqida iztirob, yolg‘izlik va umidsizlik bilan bir qatorda yashashga bo‘lgan ishonch ham sezilib turadi.

Muallif qahramon ruhiyatini ochishda ortiqcha tavsiflarga murojaat qilmaydi. Qahramonning birgina qarashi, sukuti yoki qisqa jumlasini uning ichki kechinmalarini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa yozuvchining psixologik tasvir yaratish mahoratidan dalolat beradi.

Shuningdek, qissada qo‘rquv, shubha va xurofot ta‘sirida yashayotgan Oybuloq aholisi ruhiyati ham muvaffaqiyatli tasvirlangan. Odamlarning jin haqidagi mish-mishlarga ishonishi, har qanday voqeani g‘ayritabiiy kuchlar bilan bog‘lashi jamiyat ongidagi psixologik holatlarni ochib beradi.

Shoyim Bo‘tayev badiiy tasvir vositalaridan foydalanishda ham o‘ziga xos uslubga ega. Asarda metafora, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a va ramziy obrazlar keng qo‘llanilgan.

Qissaning markaziy ramzi — shamol obrazidir. Shamol asarda faqat tabiat hodisasi sifatida emas, balki inson taqdiri, hayotning o‘tkinchiligi va zamonning o‘zgaruvchanligi ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shamol harakat, beqarorlik va yangilanish timsoli sifatida qissa g‘oyaviy mazmunini boyitadi.

Oybuloq qishlog‘idagi sirlil hodisalar ham ramziy ma‘noga ega. Yer ostidan chiqayotgan yonuvchi suyuqlik, quduqlardagi olov va odamlar orasida tarqalgan qo‘rquv hissi jaholat va xurofotning timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. Muallif bu hodisalarni tasvirlar ekan, ularning ijtimoiy va ma‘naviy mohiyatiga e‘tibor qaratadi.

Berkinboy obrazi ham qissadagi muhim ramziy qahramonlardan biridir. U o‘z yurtidan ayrilgan, yangi makon izlayotgan inson timsolidir. Shu ma‘noda Berkinboy nafaqat aniq personaj, balki hayotda o‘z o‘rnini topishga intilayotgan insoniyat vakilining umumlashma obrazidir.

Yozuvchi tabiat tasvirlarini ham ruhiy holatlar bilan uyg‘unlashtiradi. Oy, tog‘, buloq, shamol va tun manzaralari qahramonlar ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan holda tasvirlanadi. Natijada tabiat asarda oddiy fon emas, balki faol badiiy unsur sifatida qatnashadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Shamol o‘yini” qissasida badiiy nutq asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Muallif nutqining obrazlilik, dialoglarning tabiiyligi, ichki monologlarning psixologik chuqurligi va xalqona til birliklarining mahorat bilan qo‘llanilishi asarning estetik ta‘sir kuchini oshirgan. Qissada voqealar bayoni oddiy tasvir doirasida qolmaydi, balki qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki iztiroblari, hayotga munosabati va ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari orqali chuqurlashadi. Shu jihatdan badiiy nutq asarda nafaqat tasvir vositasi, balki xarakter yaratish, muallif g‘oyasini ifodalash va o‘quvchi hissiyotiga ta‘sir ko‘rsatishning muhim usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarda xalq hayoti va xalq tafakkuri badiiy nutq vositasida yorqin ifodalangan. Yozuvchi milliy ruhni aks ettirishda xalq tilining boy imkoniyatlaridan samarali foydalangan. Xalqona iboralar, obrazli ifodalar, jonli so‘zlashuv uslubiga xos birliklar qissa tiliga tabiiylik va hayotiylik bag‘ishlaydi. Natijada asar qahramonlari sun‘iy yoki kitobiy tilda emas, balki o‘z ijtimoiy muhiti, dunyoqarashi va xarakteriga mos tarzda so‘zlaydi. Bu esa qahramonlar nutqining individualligini ta‘minlab, ularning ruhiy holatini yanada ishonarli ochishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, qahramonlar nutqining individualligi asarda muhim badiiy vazifa bajaradi. Har bir obraz o‘ziga xos so‘zlash tarzi, fikrlash usuli va munosabat bildirish shakli orqali ajralib turadi. Dialoglar orqali qahramonlarning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi, xarakteridagi qat‘iyat, ikkilanish, iztirob yoki umid kabi holatlar ochiladi. Muallif dialoglardan faqat voqeani rivojlantirish uchun emas, balki obrazlarning psixologik qiyofasini yaratish maqsadida ham foydalanadi. Shu sababli qissadagi dialoglar tabiiy, hayotiy va mazmunan serqatlam ko‘rinishga ega.

Ichki monologlar esa qissaning psixologik teranligini ta‘minlaydigan muhim vositalardan biridir. Qahramonlarning ichki nutqi orqali ularning tashqi voqelikka munosabati, o‘z-o‘zini anglash jarayoni, shubha va iztiroblari ochib beriladi. Bunday nutq shakli asarning dramatik kuchini oshiradi, o‘quvchini obraz ruhiyatiga yaqinlashtiradi. Ichki monologlar yordamida yozuvchi inson qalbidagi murakkab jarayonlarni, aytilmagan fikrlar va yashirin kechinmalarni badiiy ifodalashga erishadi.